
“Ommaviy madaniyat” – ma’naviyat kushandasi

Yuksak milliy madaniyat, ma’naviyat har bir davrda jahon xalqlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi asosiy vosita bo’lib kelgan va hozir ham shunday bo’lib kelmoqda.

Milliy-ma’naviy madaniyatimizni mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqinlashtirish g’oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar o’zining sermazmunligi va ko’pqirraliligi bilan jamiyatimiz hayotida o’z aksini topmoqda.

Milliy va umuminsoniy madaniyatni uyg’unlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini keng targ’ib qilish va ommalashtirish, yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashning asosi bo’lmog’i lozim. Hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan texnika va texnologiyalar, globallashuv jarayonlarida bunday boylikning mohiyatini yanada chuqurroq anglash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugun keskin tus olayotgan “ommaviy madaniyat” ham ma’naviy tahdidlardan biridir.

Axborot omma orasida shu darajada jadallik bilan kirib bormoqdaki, har bir qatlam undan bahramand bo’lishga intilmoqda. Zamonaviylik, tezkor taraqqiyot, so’ngi axborot makonini zabt etish yoshlarimizning hayot tarziga aylanib bormoqda. Albatta, bu quvonarli hol. Bir necha tilda so’zlasha olish, internet olamiga kirib dunyo yangiliklaridan xabardor bo’lish imkoniyatining mavjudligi ularning bilimi, dunyoqarashi kengayayotganligidan darak beradi. Biroq turli axborot xurujlari, mafkuraviy tazyiqlar tobora avj olib borayotganligini ko’rish mumkin. Yoshlar ongini zaharlashda ular turli darajadagi ko’z ilg’amas usullardan foydalanishmoqda.

Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali birgina harakatning o’zi buzg’unchi kuchlar qurshoviga tushib qolishga sabab bo’layotir. Aslida “ommaviy madaniyat” soyasida kirib kelayotgan ahloqsizlik, behayolik, zo’ravonlik va buzuqlik kabi illatlar dunyodagi hech bir xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlarga ham to’g’ri kelmaydi.

Xalqimizning go’zal ma’naviy qadriyatlarga yo’g’rilgan or-nomus, andisha, sharmu - hayo kabi tushunchalari hayotimizga singib ketgan. Ayniqsa, ota-onaga hurmat, ayolga ehtirom, mardlik va jasurlik singari tuyg’ularimiz butun dunyo xalqlarini rom etib keladi. Diyorimizda aholining ko’pchilik qismini yoshlar tashkil etganligi bois, ularning isyonkor g’oyalarga qarshi turishi uchun yurtimizda o’ziga hos ishlar amalga oshirilmoqda.

O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida bu masalaga to’xtalib, axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog’liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda, deya alohida ta’kidlaydi. Shunday ekan yosh avlodni yot g’oyalar ta’siriga tushib qolishiga qarshi turli tadbirlarning keng targ’ib qilinishi ham buning yaqqol isboti deyish mumkin.

Inson huquq va erkinliklari, fikrlar rang-barangligi, har bir halqning an’ana va qadriyatlariga ehtirom ko’rsatish jamiyatimizning eng muhim tamoyillari etib belgilangan. Bunga munosib bo’lish har birimizning fuqarolik burchimizdir!

